

BORT KUZATUVCHILARNING ISH JARAYONI VA UNING SHAXSIY HAYOTGA TA’SIRI

Saidova Kamilla Muxibilloevna

Termiz Davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili)yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Kamillasaidova1227@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bort kuzatuvchilarning ish sharoitlari, ularning kundalik faoliyati va kasbiy faoliyatning shaxsiy hayotga ta’siri o’rganiladi. Tadqiqot davomida aviatsiya sohasidagi mehnat sharoitlari, ishning stress darajasi va oilaviy hayotga bo’lgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bort kuzatuvchilarning psixologik va jismoniy salomatligi bilan bog’liq muammolar ko’rib chiqiladi va muvozanatni saqlash bo’yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: bort kuzatuvchi, aviatsiya, ish sharoiti, shaxsiy hayot, stress, mehnat psixologiyasi, yosh chegarasi, qulaylik va zararli tomonlari

KIRISH

Aviatsiya sohasida bort kuzatuvchilarning roli juda muhim bo’lib, ular nafaqat yo’lovchilarga xizmat ko’rsatish, balki parvoz xavfsizligini ta’minlash uchun ham javobgardirlar. Ushbu kasb yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bilan birga, ko’p safarlarga chiqish, nostandart ish vaqti va stressli holatlar bort kuzatuvchilarning shaxsiy hayotiga jiddiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu tufayli, oilaviy mojarolar va sog’liq muammolari bilan yuzlashishi mumkin. Ushbu maqolada ularning ish jarayoni va shaxsiy hayotga bo’lgan ta’siri ilmiy nuqtayi nazardan o’rganiladi.

Tadqiqot maqsadi:

Bort kuzatuvchilarning ish jarayoni va majburiyatlarini tahlil qilish

Ular shaxsiy hayotiga ish sharoitlarining ta’sirini baholash

Ushbu kasbda ishlovchilarga tavsiyalar ishlab chiqish

1. BORT KUZATUVCHILARNING ISH JARAYONI

Bort kuzatuvchilarning kundalik ishlari quyidagi bosqichlardan iborat:

1.1. Parvozga tayyorgarlik

Parvoz oldidan brifing (xavfsizlik choralari, ob-havo, maxsus yo’lovchilar haqida ma’lumot olish)

Favqulodda vaziyatlar bo’yicha yo’riqnomalarni eslash

Bort jihozlari va xavfsizlik vositalarini tekshirish

1.2. Parvoz davomida xizmat ko‘rsatish

Yo‘lovchilarni joylashtirish va xavfsizlik qoidalarini tushuntirish

Taom va ichimliklar tarqatish

Stressli holatlar va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish

1.3. Parvozdan keyingi jarayonlar

Samolyotni tartibga keltirish

Hisobot tayyorlash

Ko‘rikdan o‘tish

2. ISHNING SHAXSIY HAYOTGA TA’SIRI

Bort kuzatuvchilarning mehnat faoliyati ularning shaxsiy hayotiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Quyida eng asosiy muammolar tahlil qilinadi.

2.1. Ish vaqti va uyqu buzilishi

Bort kuzatuvchilarining ish grafigi odatiy 9:00-18:00 rejimidan farq qiladi. Ular tungi reyslarda ishlashlari, vaqt zonalarining o‘zgarishi sababli biologik soatlarining buzilishi mumkin. Bu esa:

Uyqusizlik va charchoq

Immunitetning pasayishi

Konsentratsiya muammolariga olib kelishi mumkin.

2.2. Oilaviy va ijtimoiy hayotga ta’siri

Ish safarlari ko‘p bo‘lgani sababli, oila va do‘stlar bilan vaqt o‘tkazish imkoni cheklanadi.

Er-xotinlar va bolalar bilan muloqot kamligi oilaviy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Dam olish va bayram kunlarida ishlash zarurati ijtimoiy hayotga ta’sir qiladi.

Ko‘pincha odamovi bo‘lib qoladi.

Fikrlash doirasi o‘zgaradi.

2.3. Psixologik bosim va stress

Bort kuzatuvchilar doimiy ravishda:

Noqulay yo‘lovchilar bilan ishlash

Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish

Jismoniy va ruhiy bosim ostida bo‘lish kabi holatlarga duch keladilar.

Bu esa uzoq muddatli stressga, depressiyaga va ruhiy charchoqqa olib kelishi mumkin.

3. TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot doirasida 50 nafar bort kuzatuvchi bilan so‘rov o‘tkazildi. Ularning: 85% ish grafigining uyqu rejimiga salbiy ta’sir qilayotganini ta’kidladi.

72% oilaviy hayotga yetarli vaqt ajrata olmasligini bildirdi.

60% muntazam stress ostida ishlashini qayd etdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bort kuzatuvchilarning shaxsiy hayoti va ruhiy salomatligini saqlash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Bu kasbning qiyinchiliklari ko‘p bo‘lganligi sababli, ko‘pchilik uzoq muddat ishlayolishmayidi, shuningdek, ularning yosh chegarasi 18-35 yoshni qamrab oladi.

5.QIZIQARLI MA’LUMOTLAR

Bort kuzatuvchilari bizga birgina nazar tashlaboq, mushkul vaziyatlarda o‘zimizni qanday tutishimizni, bizga alohida e‘tibor zarur bo‘lish-bo‘lmasligini va umuman bizni bortga kiritish mumkin-mumkin emasligini tushunib olishga qodir, deb yozadi “Layfxaker”.

1)Ko‘zga tik boqyapsizmi?

Odatda ko‘z-ko‘zga tegishidan qochadigan odamlar qo‘rqayotgan yoki asabiylashayotgan bo‘ladi. Yo‘lovchi parvo6z oldidan qattiq qo‘rquvni his qilayotganini tan olmasligi mumkin, ammo tajribali bort kuzatuvchisi har ehtimolga qarshi sizga ko‘z-quloq bo‘lib turadi.

2)Asabiylashyapsizmi?

O‘zingizni yomon his qilayotganingizda ko‘zlaringizni yashirsangiz ham, qo‘llaringiz qaltiraydi, terlaysiz yoki boshqa belgilarni namoyon qilasiz, bort kuzatuvchisi esa bunga albatta diqqatini qaratadi va zarur bo‘lganida sizga sarosimani yengishda yordam beradi.

3)Hushyormisiz?

Siz sarmast holda pasport nazoratidan o‘tib olishga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsangiz, bu sizni samolyotga kirishda qaytarishmaydi, degani emas. Agar styuard samolyotga o‘tirish chog‘ida nomuvofiq xulq yoki tajovuzkorlik belgilarini payqasa, shirakayf sayohatchini reysdan chetlatishlari mumkin.

4)Qanday jismoniy formadasiz?

Bort kuzatuvchilari bizga qarab, shoshilinch evakuatsiya holati yuz bersa, boshqa yo‘lovchilarga yordam bera olish-olmasligimizni baholaydi.

5)Salomga alik olyapsizmi?

Yo‘lovchi qanchalik xushmuomala bo‘lsa, kutilmagan vaziyatlarda unga birinchi bo‘lib yordam so‘rab murojaat qilishadi.

6)O‘zingizni qanday his qilyapsiz?

Bort kuzatuvchilari siz parvozni qanday o‘tkazishingizni oldindan tushunishga harakat qiladi. Agar transportga o‘tirish paytidayoq o‘zingizni yomon his qilayotgan bo‘lsangiz, ehtimol tavakkal qilish kerak emas.

7)Homiladormisiz?

Ma’lum muddatdan keyin shifokordan parvoz uchun ruxsat beruvchi maxsus sertifikat talab qilinadi. Shuningdek, ba’zi aviakompaniyalar homiladorlikning so‘nggi muddatlarida uchishni taqiqlaydi. Bort kuzatuvchilari homilador sayohatchilarga alohida e’tibor bilan yondashib, ular uchun parvozdagi noqulayliklarni minimallashtirishga intiladi.

6.XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Ish vaqti muvozanatini yaxshilash – Aviakompaniyalar bort kuzatuvchilarga moslashuvchan jadval yaratishi kerak.
2. Psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish – Stress va charchoqni kamaytirish uchun maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur.
3. Oila a’zolari bilan ko‘proq vaqt o‘tkazish imkonini berish – Uzluksiz reyslardan so‘ng qo‘shimcha dam olish kunlari berilishi kerak.
4. Sog‘liqni saqlash choralari – To‘g‘ri ovqatlanish va uyqu rejimini muvozanatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish.
5. Mehnatiga yarasha maosh tayinlash.
6. Ish davomida bonuslar ham qo‘llash chorasini ko‘rish maslahat beriladi.

Kelajakda bort kuzatuvchilarning ish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi zarur.

ADABIYOTLAR

- [1] Aviatsiya sohasidagi mehnat tadqiqotlari bo‘yicha ilmiy maqolalar
- [2] Xalqaro aviakompaniyalar mehnat qonunchiligi hujjatlari
- [3] Psixologiya va stress menejmenti bo‘yicha ilmiy manbalar.
- [4] Uzbekistan Airways